

Bizlarkim quyida imzo chekib o'zaro shartnoma tuzuvchilar bir tomondan «Gold Crown Pharma» MCHJ nomidan R.Xaydarov kelgusida «Ta'minotchi» deb nomlanadi va ikkinchi tomondan *Mopkey* nomidan uning rahbari *Mir. Duple mevorob* kelgusida «Xaridor» deb nomlanib, quyidagi mazmunda shartnoma tuzdik.

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. «Ta'minotchi» «Xaridor»ning talabnomasi bilan zarur dori-darmonlar, tibbiy ashyolarni sotadi. «Xaridor» esa o'lgan mahsulotlari uchun to'lovni «Ta'minotchi»ning bankdagi tegishli xisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2.

№	Mahsulot nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	Umumiy qiymati
1	<i>Dopsumbu He</i>	<i>qsm</i>	<i>10000</i>	<i>1900</i>	<i>1900000</i>
2					
3					
4					
5					
6					
7					
	Jami				<i>1900000</i>

Shartnomaning umumiy summasi: *1900000 (bir mln. to'qqiz yuz so'm.)*

2. MAHSULOTNING SIFATI

2.1 «Ta'minotchi» «Xaridor»ga O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yahdan o'tgan, tibbiyotga ishlatishga ruhsat etilgan sifat, markirovka, o'ramlar farmatsevtik va texnik talablariga javob beradigan xamda sifat sertifikatini yoki taxlil bayoniga ega bo'lgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlarni sotadi.

3. SHARTNOMA QIYMATI VA XISOB-KITOB TARTIBI

3.1. Xisob kitob «Xaridor» tomondan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.
 3.2. Shartnoma kuchga kirib, tegishli G'aznachilik tizimidan ro'yahdan o'tgandan so'ng «Xaridor» mablag'ni 5 (besh) bank ish kunida yetkazib beriladigan mahsulotlarning umumiy summasini 30% ni oldindan avans tariqasida «Ta'minotchi» ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.

3.3. «Ta'minotchi» shartnomaning 5.3. bandiga asosan xar oyda belgilangan miqdorda mahsulotni yetkazib beradi.
 3.4. «Xaridor» «Ta'minotchi» tomondan jadval asosida yetkazib berilgan mahsulotni 70% to'lovni mahsulot yetkazib berilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni davomida «Ta'minotchi»ning xisob raqamiga o'tkazib beradi.
 3.5. Shartnomada ko'rsatilgan narxlar bozor munosabatlaridan kelib chiqqan xolda, xom-ashyo narxlarini hamda xom-ashyolarning yetkazib berilishi xarajatlarini o'rtishi, shuningdek xorijiy valyutalarining so'mga nisbatan kurslarini ko'tarishi natijasida, xar 3 (uch) oyda bir marotaba shartnomada ko'rsatilgan mahsulotlar narxlarini qayta ko'rib chiqiladi va mahsulot narxlarini o'zgartiriladi. Narxdagi o'zgarishlar tomonlar o'rtasida tasdiqlangan qo'shimcha kelishuv orqali amalga oshiriladi.

4. TOMONLARNING XUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1 «Ta'minotchi» quyidagi huquqlarga ega:
 - Yetkazib beriladigan mahsulotni «Xaridor» tomondan oldindan xaq to'lanishi va tegishli qonun xujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzli-kesil xisob kitob qilishni byudjet tashkilotidan talab qilish;
 - Berilgan buyurtmaga muvofiq yetkazib beriladigan mahsulotni qabul qilishni asossiz rad etilishi natijasida etkazilgan zararni qoplanishini byudjet tashkilotidan talab qilish;
 4.2. «Ta'minotchi» quyidagilarga majbur:
 -«Xaridor»ga mahsulotni mazkur shartnomaga asosan belgilangan muddatlarda sifat va miqdorida yetkazib berish;
 -Agar mahsulotni yetkazib beruvchi shartnoma shartlari va normativlardan chekinishga yo'l qo'lgan bo'lsa byudjet tashkilotining talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklar 3-kun muddatda bepul tuzatib berish;
 4.3. «Xaridor» ning huquqlari:
 -Yetkazib beruvchidan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ xujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;
 -Yetkazib beruvchidan mazkur shartnoma asosida beriladigan buyurtmaga muvofiq tegishli sifat assortimentdagi mahsulotni yetkazib beruvchini talab qilish;
 -Mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zarar qoplanishini yetkazib beruvchidan talab qilish;
 4.4. «Xaridor» majburiyatlari:
 -O'z buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan mahsulotni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;